

*Boyovut tumani axborot-kutubxona markazi
bibliografiya xizmati*



*Furqat tavalludining 166yilligiga
Bibliografik qo'llanma*

Boyovut tumani

UO‘K – 82

F-97

Furqat tavalludining 166yilligiga bibliografik qo‘llanma .Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlangan: bibliografik qo‘llanma / tuzuvchi: O.Eshqozoqova; muharrir: N. Axmatova. - Boyovut: Sirdaryo viloyati Boyovut tumani axborot – kutubxona markazi, 2025.-18 b.

Qo‘llanmadan axborot – o‘quvchilar , talabalar,kutubxona muassasalari mutaxassislari foydalanishlari mumkin.Keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

KIRISH

Furqat hayoti va ijodini o'rganish juda erta – shoir she'rlarini to'plashdan boshlangan edi. Zokirjon endigina 24 yoshga to'lganda, uning she'rlari qo'lyozma she'riy to'plamlar – bayozlarga kiritila boshlanadi. Keyinchalik katta-katta qo'lyozma va toshbosma bayozlarda shoirning o'nlab g'azallari, muxammaslari va musaddaslari o'rin olganinini ta'kidlash lozim. 1890 yildan esa adibning o'sha paytlarda o'zbek tilida chop etilgan yagona nashr – “Turkiston viloyatining gazetisi”da e'lon qilingan she'rlari va maqolalari Furqat nomini yanada mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi. Adib hayoti va ijodini o'rganishda qimmatli manba bo'lgan “Ho'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoluti, o'zi yozg'oni” esdalik-memuarlari ham shu gazeta sahifalarida bosilgan edi. O'sha yillari shoirning ayrim asarlari Sankt-Peterburgda chiqib turgan “Zapiski Vostochnogo otdeleniya russkogo arxeologicheskogo obshestva” jurnalida ham e'lon qilingan va rus sharqshunoslari diqqatini o'ziga tortgan edi. Furqat ijodini o'rganish XX asrning 30-yillaridan boshlab kuchayganini kuzatish mumkin. Ma'rifatparvar shoirning ayrim she'rlari o'sha paytlarda nashr etilgan maktab darsliklari va xrestomatiyalarida uchraydi. Adib asarlarini o'rganish va nashr qilishda filologiya fanlari doktori Xolid Rasulning xizmati katta bo'lganini ta'kidlash lozim. Uning Furqat hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan o'nlab maqolalari, risolalari chop etilgan. Olim shoir asarlarining o'zbek va rus tillarida bir jildlik va ikki jildlik nashrlari bir necha marta amalga oshirishida jonbozlik ko'rsatdi. 1959 yilda shoir tavalludining 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan yubiley tantanalari adib ijodini o'rganishda muhim hodisa bo'ldi. Shu munosabat bilan shoir yashagan davrning ijtimoiy va madaniy-adabiy hayoti haqida, shoirning faoliyati va ijodi haqida ko'p ilmiy maqolalar, monografiyalar yaratildi. Uning ijodiga oid alloma shoirlar G'.G'ulom, M.Shayxzoda, S.Abdulla, akademiklar I.Mo'minov, V.Zohidov, A.Qayumov, yirik adabiyotshunoslari H.Zaripov, L.Qayumov, A.Abdug'afurov, E.A.Karimov, Sh.Yusupovlarning salmoqli tadqiqotlari va monografiyalari yaratildi. Yaratilgan ushbu tadqiqotlarga tayangan holda Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodida milliylik masalasining yoritilishi va unda shoirning badiiy mahorati masalalarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik. Bu esa tanlangan mavzumizning dolzarbligini belgilaydi.

Turg'unlik davri adabiyotshunosligida xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan adabiy merosga, ularning kattagina qismini yaratgan din arboblari, allomayu shayxlar, adabiyot vakillari shaxsiyatiga bir yoqlama qarab kelindi. Ularning faoliyatidan hukmron mafkuraga ma'qul tomonlarigina o'rganilib, asarlari mafkura g'oyasiga bo'ysundirildi. Xuddi shunday gapni Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodiga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda o'z hukmronligini o'rnatgan chor hokimiyati o'zbek xalqi boshiga katta kulfatlarni soldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-mafkuraviy voqealar badiiy adabiyotda ham aks etdi. Bu davrda Turkistonga ilg'or fan va texnika yutuqlari ham kirib kela boshlagan edi. O'rta Osiyoda kolonial va milliy zulm avj olgan bir davrda ilg'or yangi mafkura paydo bo'ldi va bu ilg'or mafkura o'zbek adabiyotida ilk bor Furqat ijodida o'z aksini topdi. Biroq sobiq sho'ro davrida shoiri ijodini tahlil va talqin qilishda biryoqlamalikka yo'l qo'yildi. Shularni inobatga olgan holda kurs ishimizda Furqat ijodida millilik masalasini tahlil qilishga harakat qildik.

Furqat hayoti va ijodi

Furqat (taxallusi; asl ismsharifi Zokirjon Mullo Holmuhammad o'g'li) (1859, Qo'qon —1909, Yorkend) — taraqqiyparvar shoir, mutafakkir, publitsist. Mahallasidagi maktabda savod chiqargan, mudarris va kotiblardan xattotlik, arab tilini o'rgangan. Madrasada o'qigan (1873—76). Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyoti namoyandalari merosini chuqur o'rgangan, fors tilini mukammal o'zlashtirgan. 1876 yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahridagi savdogar togasining iltimosiga ko'ra u yerga

borib, savdo ishlarida unga yordamlashgan, keyinchalik o'zi ham kichik do'kon ochgan. Ayni paytda bilimdon ziyoli sifatida kishilarning arz va iltimoslarini rasmiy mahkamalarga arizalar shaklida bitib, mirzalik ham qilgan.

Furqat Yangi Marg'ilonda ijodkor sifatida to'la shakllandi, o'z g'azallariga «Furqat» taxallusini qo'yib, shuhrat qozona boshladi. Bu yerda o'tkazilgan yillar Furqatning xalqchil dunyoqarashi, ilg'or adabiyestetik tushunchalarining shakllanishida ham muhim bir bosqich bo'ldi. 80-yillarning boshlarida Furqat Qo'qonga qaytib, oila quradi va, asosan, ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Muqimiy va Muhyi yetakchi bo'lgan Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir kabi ijodkorlar guruhi bilan bevosita muloqotda bo'ladi, ular uyushtirib turadigan adabiy majlislar, she'riyat kechalarining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Furqatning Qo'qondagi bu davr ijodi tur va mavzu, mazmun va shakl rang-barangligi jihatidan ham, sermahsulligi jihatidan ham diqqatga sazovor. U mumtoz she'riyat an'analari ruhida ko'plab ishqiy g'azallar, muxammaslar yaratgan. Alisher Navoiy asarlariga go'zal nazira va taxmislar bog'lagan, uning she'rlarida ijtimoiy ruh va zamonaviylik tobora keng o'rin egallay boshlagan (mas, «Bo'ldi» radifli muxammasi va boshqa she'rlarida). Furqat xalqning siyosiy huquqsizligi va iqtisodiy nochor ahvolidan qayg'irgan («Ne jurm o'ttiki bizdin, bunchalik Farg'ona tang bo'ldi?...»)

Qo'qon xonligining uzilkesil tugatilib, batamom mustamlakaga aylantirilishi voqeasiga bog'liq holda yaratilgan: «Demish xon bir kunikim, davru davronlar qayon qoldi?» misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ham Furqatning shu davrdagi ijodi mahsulidir. Toju taxtdan, sha'nu shavkat va a'yonlardan maxrum bo'lgan Xudoyorxon nomidan bitilgan bu asar ham shoir ijodida zamonaviy ijtimoiy mavzu keng o'rin egallaganinint isbotidir.

Furqatning ijodiy merosida an'anaviy she'riy turlar, o'zbek mumtoz adabiyotidagi asosiy mavzular yetakchi o'rin egallaydi. Uning g'azal va muxammaslari, bog'lagan taxmisleri uzining hayotiyliigi, musiqiyliigi, nihoyatda samimiyligi bilan o'quvchini maftun etadi. Furqat she'rlarida ona-yurt tabiati va bahor go'zalligi, jo'shqin sevgi-muhabbat va chin insoniy fazilatlar, hayot shodliklaridan quvonish va turmush tashvishlaridan shikoyat qilish, umuman, odam va olam, kishilarning ma'naviy dunyosi, mehri va qahri yaqqol tasvirlangan. Masalan, «Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa», «Umr xush o'tmas bahor ayyomi sahro bo'lmasa», «Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang», «Jannatning gullaridan gulzoringiz chiroylik», «Ko'ngul dardig'a topmay boraman hargiz davo istab», «Fasli navbahor o'ldi ketubon zimistonlar» kabi misralar bilan boshlanuvchi g'azallari, «Yetti falak», «Biri», «Istar ko'ngul», «Do'st», «Kokulung» radifli muxammaslari, Navoiy g'azallariga taxmisleri davr she'riyatining ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk namunalari hisoblanadi. Furqat she'riyatida mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, joriy adolatsizlik va zo'ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonada e'tibor topib, donolarning xorzor etilishidan norozilik esda qolarli badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan. «Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'men: Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur» kabi barkamol misralar shoir ijodidagi ijtimoiy yo'nalishni aks ettiradi. «Bormasmiz» radifli she'rinda esa o'zbek milliy ruhiyati badiiy ifodalangan. Mashhur «Sayding qo'yaber, sayyod...» musaddasida esa shoir shaxsning erkin yashash huquqini himoya qiladi, zulm va istibdodni qat'iy qoralaydi.

Furqat xuddi shu yillarda «Xammomi xayol» risolasini yozadi. «Chor darvesh» hikoyatini forschadan tarjima qiladi. «Nuh manzar» nomli she'riy kitob yaratadi. «Bulardin bo'lak har xil g'azaliyotim Farg'ona muzofotig'a (ya'ni, yonatraf qishloqshaharlariga) va digar mamlakatlarga muntashir (mashhur) bo'ldi», deb yozadi shoir. Xuddi shu yillarda Furqat ilk bor she'rlarini to'plab, majmua holiga ham keltirgan. Afsuski, shoirning o'zi qayd etgan risola, manzuma va tarjimalari kabi bu majmua ham shu kunga qadar topilgan emas.

Furqat taxminan 1886—87 yillarda Marg'ilonga borib, u yerdagi Masjidi jome hujrasida istiqomat qilgan, yoru birodarlari ko'magida kichik do'kon ochgan bo'lsada, asosan, she'riyat bilan shug'ullangan, shaharning ziyolilari, jumladan, Xo'jajon Rojiy, Muhammad Umar Umidiy-Havoiiy, Mulla Toshboltu

Royiq kabi ijodkorlar bilan tanishib, adabiy suhbatlar qurgan. Furqat ilk bor gazeta bilan tanishib, uning «Toshkent shahrida bosma bo'lg'on»ligini shu yerda biladi. Yangilikka chanqoq, taraqqiyparvar shoirida ijtimoiy hayotda yuz bergan o'zgarishlarga, sekinasta yoyila borayotgan fan va texnika namunalariga qiziqish uyg'onadi, yangiliklar bilan bevosita tanishish, o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqi zo'rayadi. 1889 yil boshlarida Toshkent safariga chiqadi, Xo'jandda to'xtab, Toshxo'ja Asiriy boshliq shoirlar, adabiyot muxlislari bilan uchrashadi, adabiy kechalarda ishtirok etadi. Nihoyat, 1889 yilning iyunida Toshkentga keladi. Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi. Ko'zga ko'ringan olim, fozillar bilan tanishadi. Sharifxo'ja eshon tavsiyasi bilan ma'lum muddat «Farhat» (shodlik, xursandlik) taxallusida she'rlar yozadi, lekin ko'p o'tmay, eski taxallusiga qaytadi. Furqat Toshkentda rus ziyolilari, yevropacha hayot tarzi bilan tanishdi. Chor ma'murlari shoirning teatr, gimnaziya, turli kontsertlarga kiritishni uyushtirdilar, ko'rgazmalarga olib bordilar. Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergan o'zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy o'zgarish bo'ladi va bu hol uning ijodida o'z badiiy ifodasini topadi — ma'rifatparvarlik, yevropacha ilm-madaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir she'rlarining yetakchi g'oyasiga aylana boradi. Bu esa Furqatning ko'p asrli o'zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g'oyalar olib kirishiga zamin bo'ldi. Toshkentda ochilgan erlar gimnaziyasi, maorif muassasalari, madaniyat va san'at o'choqlarini, tobora ko'proq kirib kelayotgan fantexnika yangiliklarini kuzatish oqibatida uning «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Vistavka xususida», «Akt majlisi xususida», «Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida», «Suvorov» va boshqa asarlari maydonga keldi va ularning barchasi 1890 yillarda «Turkiston viloyatining gazetida chop qilindi. Bu turkum asarlarida Furqat yangilik va taraqqiyotning, ilm-fan va yevropacha maorif-madaniyatning targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi; o'z vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni puxta egallashga va ilg'or xalqlar qatoridan o'rin olishga da'vat etadi. Birok Furqat ayrim zamondoshlari singari rus istilochilik siyosatining asl mohiyatini birdaniga anglay olmadi. Rus, Yevropa madaniyatparvarligi orqasida mahalliy ruslashtirish siyosati pinhon ekanligini so'ngroq tushunib yetdi. Xuddi shu yillarda yaratilgan «Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida» asarida Furqat ijodkor va badiiy adabiyot xususida ran ochib, she'riyatda realistik tasvir masalasini ko'tardi. Furqat hakli ravishda o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Furqatning publitsist sifatidagi faoliyati 1890 yildan boshlandi. «Turkiston viloyatining gazetiga» rasman ishga kirdi, gazetani tayyorlashda bevosita katnashdi. Bir yildan ko'proq vaqt mobaynida Sattorxon kabi ilg'or ma'rifatparvarlar bilan hamkorlikda ishlab, gazeta sahifalarida o'z maqolalarini e'lon qildi. Masalan, 1891 yil I-yarmida «Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozgoni» publitsistik asarini yozib, shu gazetada e'lon qildi. 1891 yil mayda Samarqandga bordi, osori-atiqalar bilan tanishdi, gazetaga xabarlar yo'lladi, keyin Buxoroda bo'ldi. Iyulda esa chet el sayohatiga chiqdi. Uning chet elga sayohati haqida turli taxminlar bor. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u atayin keytib kelmaydigan qilib o'z yurtidan chiqarib yuborilgan. Xullas, 1891 yilning iyulida Marv — Ashxobod — Boku — Batumi orqali Istanbulga bordi. Do'stlariga yozgan maktublarida, voqealarni oldindan bilgandek, vatanidan bir umr ajralib qoladigan odamning kayfiyatini aks ettirdi. Masalan, Istanbuldan yozgan «Sabog'a xitob» she'riy maktubida Vatan ishtiyoqi, do'stlar sog'inchi, g'urbat azoblari va yolg'izlik motivlari birinchi o'ringa chiqqan.

Furqat Istanbuldan Bulg'oriya va Yunonistonga o'gdi. Bolqon yarim orolining qator shaharlarida bo'ldi. 1892 yilning martida Istanbuldan O'rta dengiz orqali Arabistonga — Makka, Jidda, Madina shaharlariga bordi. Makkadagi haj ziyorati munosabati bilan «Hajnoma» asarini yaratdi. So'ng Bombayga keldi, Hindistonning qator viloyatlariga sayohat qildi. Uning bu davrda yozgan nasriy va nazmiy maktublarida tushkunlik, onayurt sog'inchi va iztiroblari aks etgan. «Adashganman» radifli hamda «Kashmirda», «Bulbul» deb nomlanuvchi lirik she'rlar turkumi shu jihatdan o'ziga xos hijronnomadir. 1893 yil martida Furqat Kashmir va Tibet orqali Sharqiy Turkistonga borib, Yorkendda turg'un yashab qoldi. Oila qurdi. Tabiblikdan xabardor bo'lgan shoir dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi do'kon ochdi, ijodiy ish va xattotlik bilan shug'ullandi. Furqat doimo Vatanga qaytish umidi bilan yashadi. Avval boshlagan «Sayohatnoma» asari ustidagi ishni Yorkendda davom ettirdi. Lekin bu

asar hanuz topilgani yo‘q. U yerdan Toshkentga publitsistik asarlar, turli mavzudagi xat-maqolalar, Farg‘ona va Toshkentdagi yordo‘stlariga maktublar yo‘llab turgan. Furqat o‘zbek matbuoti tarixida feleton janrini boshlab berdi («Hind nayrangbozi Yorkendda», 1905). Barkamol lirikasi, jozibali nasri va gublitsistikasi bilan 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qushgan Furqat onavatanidan uzoqda vafot etdi. Uning jasadi Yorkendning Dongdor qabristoniga ko‘milgan. 1990 yil shoir qabri ustiga maqbara qurilgan. Furqatning she‘rlari kitob holida dastlab 1913 yilda Muqimiy she‘rlari bilan birga bayoz holida toshbosmada bosilgan edi, 50—80-yillarda ko‘p bor nashr etildi. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinostsenariy va boshqa yaratildi. O‘zbekistondagi bir qator qishloq, tuman, maktab, ko‘cha va xiyobonlar, bog‘lar uning nomi bilan ataladi.

Furqatning ijodiy merosida an‘anaviy she‘riy turlar, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi asosiy mavzular yetakchi o‘rin egallaydi. Uning g‘azal va muxammaslari, bog‘lagan taxmislari o‘zining hayotiyligi, musiqiyliigi, nihoyatda samimiyligi bilan o‘quvchini maftun etadi. Furqat she‘rlarida ona yurt tabiati va bahor go‘zalligi, jo‘shqin sevgi-muhabbat va chin insoniy fazilatlar, hayot shodliklaridan quvonish va turmush tashvishlaridan shikoyat qilish, umuman, odam va olam, kishilarning ma‘naviy dunyosi, mehri va qahri yaqqol tasvirlangan. Masalan, „Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo‘lsa“, „Umr xush o‘tmas bahor ayyomi sahro bo‘lmasa“, „Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lolarang“, „Jannatning gullaridan gulzoringiz chiroylik“, „Ko‘ngul dardig‘a topmay boraman hargiz davo istab“, „Fasli navbahor o‘ldi ketubon zimistonlar“ kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallari, „Etti falak“, „Biri“, „Istar ko‘ngul“, „Do‘st“, „Kokulung“ radifli muxammaslari, Navoiy g‘azallariga taxmislari davr she‘riyatining ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk namunalari hisoblanadi.

Furqat she‘riyatida mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, joriy adolatsizlik va zo‘ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonada e‘tibor topib, donolarning xor-zor etilishidan norozilik esda qolarli badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan.

„Charx kajraftorning bir shevasidan dog‘men: Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur“ kabi barkamol misralar shoir ijodidagi ijtimoiy yo‘nalishni aks ettiradi. „Bormasmiz“ radifli she‘rida esa o‘zbek milliy ruhiyati badiiy ifodalangan. Mashhur „Sayding qo‘yaber, sayyod...“ musaddasida esa shoir shaxsning erkin yashash huquqini himoya qiladi, zulm va istibdodni qat‘iy qoralaydi.

Furqat xuddi shu yillarda „Xammomi xayol“ risolasini yozadi. „Chor darvesh“ hikoyatini forschadan tarjima qiladi. „Nuh manzar“ nomli she‘riy kitob yaratadi. „Bulardin bo‘lak har xil g‘azaliyotim Farg‘ona muzofotig‘a (ya‘ni, yon atrof qishloq-shaharlariga) va digar mamlakatlarga muntashir (mashhur) bo‘ldi“, deb yozadi shoir. Xuddi shu yillarda Furqat ilk bor she‘rlarini to‘plab, majmua holiga ham keltirgan. Afsuski, shoirning o‘zi qayd etgan risola, manzuma va tarjimalari kabi bu majmua ham shu kunga qadar topilgan emas.

Furqat taxminan 1886—1887-yillarda Marg‘ilonga borib, u yerdagi Masjidi jome hujrasida istiqomat qilgan, yor-u birodarlari ko‘magida kichik do‘kon ochgan bo‘lsa-da, asosan, she‘riyat bilan shug‘ullangan, shaharning ziyolilari, jumladan, Xo‘jajon Rojiy, Muhammad Umar Ulshdmy Havoiy, Mulla Toshboltu Royiq kabi ijodkorlar bilan tanishib, adabiy suhbatlar qurgan. Furqat ilk bor gazeta bilan tanishib, uning „Toshkent shahrida bosma bo‘lg‘on“ ligini shu yerda biladi. Yangilikka chanqoq, taraqqiyparvar shoirida ijtimoiy hayotda yuz bergan o‘zgarishlarga, sekin-asta yoyila borayotgan fan va texnika namunalari qiziqish uyg‘onadi, yangiliklar bilan bevosita tanishish, o‘z ko‘zi bilan ko‘rish ishtiyoqi zo‘rayadi. 1889-yil boshlarida Toshkent safariga chiqadi, Xo‘jandda to‘xtab, Toshxo‘ja Asiriy boshliq shoirlar, adabiyot muxlislari bilan uchrashadi, adabiy kechalarda ishtirok etadi. Nihoyat, 1889-yilning iyunida Toshkentga keladi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi. Ko‘zga ko‘ringan olim, fozillar bilan tanishadi. Sharifxo‘ja eshon tavsiyasi bilan ma‘lum muddat „Farhat“ (shodlik, xursandlik) taxallusida she‘rlar yozadi, lekin ko‘p o‘tmay, eski taxallusiga qaytadi.

Furqat Toshkentda rus ziyolilari, yevropacha hayot tarzi bilan tanishdi. Chor ma‘murlari shoirning teatr, gimnaziya, turli konsertlarga kiritishni uyushtirdilar, ko‘rgazmalarga olib bordilar.

Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergan o'zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy o'zgarish bo'ladi va bu hol uning ijodida o'z badiiy ifodasini topadi — ma'rifatparvarlik, yevropacha ilm-madaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir she'rlarining yetakchi g'oyasiga aylana boradi. Bu esa Furqatning ko'p asrli o'zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g'oyalar olib kirishiga zamin bo'ldi. Toshkentda ochilgan erlar gimnaziyasi, maorif muassasalari, madaniyat va san'at o'choqlarini, tobora ko'proq kirib kelayotgan fan-texnika yangiliklarini kuzatish oqibatida uning „Ilm xosiyati“, „Gimnaziya“, „Vistavka xususida“, „Akt majlisi xususida“, „Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida“, „Suvorov“ va boshqa asarlari maydonga keldi va ularning barchasi 1890-yillarda Turkiston viloyatining gazetasida chop qilindi.

Bu turkum asarlarida Furqat yangilik va taraqqiyotning, ilm-fan va yevropacha maorif-madaniyatning targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi; o'z vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni puxta egallashga va ilg'or xalqlar qatoridan o'rin olishga da'vat etadi. Biroq Furqat ayrim zamondoshlari singari rus istilochilik siyosatining asl mohiyatini birdaniga anglay olmadi. Rus, Yevropa madaniyatparvarligi orqasida mahalliy ruslashtirish siyosati pinhon ekanligini so'ngroq tushunib yetdi. Xuddi shu yillarda yaratilgan „Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida“ asarida Furqat ijodkor va badiiy adabiyot xususida ran ochib, she'riyatda realistik tasvir masalasini ko'tardi.

Furqat haqli ravishda o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Furqatning publitsist sifatidagi faoliyati 1890-yildan boshlandi. „Turkiston viloyatining gazetasi“ ga rasman ishga kirdi, gazetani tayyorlashda bevosita qatnashdi. Bir yildan ko'proq vaqt mobaynida Sattorxon kabi ilg'or ma'rifatparvarlar bilan hamkorlikda ishlab, gazeta sahifalarida o'z maqolalarini e'lon qildi. Masalan, 1891-yil 1-yarmida „Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozgani“ publitsistik asarini yozib, shu gazetada e'lon qildi. 1891-yil mayda Samarqandga bordi, osori atiqalar bilan tanishdi, gazetaga xabarlar yo'lladi, keyin Buxoroda bo'ldi. Iyulda esa chet el sayohatiga chiqdi. Uning chet elga sayohati haqida turli taxminlar bor. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u atayin qaytib kelmaydigan qilib o'z yurtidan chiqarib yuborilgan. Xullas, 1891-yilning iyulida Marv—Ashxobod—Boku—Batumi orqali Istanbulga bordi. Do'stlariga yozgan maktublarida, voqealarni oldindan bilgandek, vatanidan bir umr ajralib qoladigan odamning kayfiyatini aks ettirdi. Masalan, Istanbuldan yozgan „Sabog'a xitob“ she'riy maktubida vatan ishtiyoqi, do'stlar sog'inchi, g'urbat azoblari va yolg'izlik motivlari birinchi o'ringa chiqqan.

-- Shoir sayohati == Furqat Istanbuldan Bulg'oriya va Yunonistonga o'tdi. Bolqon yarim orolining qator shaharlarida bo'ldi. 1892-yilning martida Istanbuldan O'rta dengiz orqali Arabistonga — Makka, Jidda, Madina shaharlariga bordi. Makkadagi haj ziyorati munosabati bilan „Hajnoma“ asarini yaratdi. So'ng Bombayga keldi, Hindistonning qator viloyatlariga sayohat qildi. Uning bu davrda yozgan nasriy va nazmiy maktublarida tushkunlik, ona yurt sog'inchi va iztiroblari aks etgan. „Adashganman“ radifli hamda „Kashmirda“, „Bulbul“ deb nomlanuvchi lirik she'rlar turkumi shu jihatdan o'ziga xos hijronnomadir. 1893-yil martida Furqat Kashmir va Tibet orqali Sharqiy Turkistonga borib, Yorkentda turg'un yashab qoldi. Oila qurdi. Tabiblikdan xabardor bo'lgan shoir dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi do'kon ochdi, ijodiy ish va xattotlik bilan shug'ullandi. Furqat doimo Vataniga qaytish umidi bilan yashadi. Avval boshlagan „Sayohatnoma“ asari ustidagi ishni Yorkentda davom ettirdi. Lekin bu asar hanuz topilgani yo'q. U yerdan Toshkentga publitsistik asarlar, turli mavzudagi xat-maqolalar, Farg'ona va Toshkentdagi yor-do'stlariga maktublar yo'llab turgan. Furqat o'zbek matbuoti tarixida felyeton janrini boshlab berdi („Hind nayrangbozi Yorkentda“, 1905).

Barkamol lirikasi, jozibali nasri va publitsistikasi bilan 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan Furqat ona vatanidan uzoqda vafot etdi. Uning jasadi Yorkentning Dongdor qabristoniga ko'milgan. 1990-yil shoir qabri ustiga maqbara qurilgan.

Furqatning she'rlari kitob holida dastlab 1913-yilda Muqimiy she'rlari bilan birga bayoz holida toshbosmada bosilgan edi, 50–80-yillarda ko'p bor nashr etildi. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinossenariy va boshqa yaratildi. O'zbekistondagi bir qator qishloq, tuman, maktab, ko'cha va xiyobonlar, bog'lar uning nomi bilan ataladi.

SHOIR LIRIKASIDA INSON ERKI VA G'URBAT OHANGLARI

Shoir chet ellarda kezar ekan, bir lahza ham Vatanidan ko'ngil uza olmaydi. Yurtidan ayri tushganini dildildidan sezib turadi. Iztirob chekadi. Uning xorijda yozgan «Adashganman» radifli g'azali va muhammasi buning yorqin misoli. She'rga «adashganman» so'zining radif qilinib, urg'u berilishining o'zida katta ma'no bor. Qayerga bormasin, shoir o'zini g'arib, oshiyonidan ayrilgan qush, bo'stonidan adashgan bulbul singari his qiladi:

G'aribi bu viloyat - honumonidin adashganman,

Basoni murg'i vahshiy - oshiyonidin adashganman.

Yo'q, yo'q, u shunchaki Vatanidan emas, tandagi jonidan ay-rilgan. Falak bir aylandi-yu, u boshidagi soyabonidan ayrildi. Boshiga g'urbat oftobi tushdi. Bu olamga nur, hayot berguvchi odatdagi oftob emas, aksincha, hayotni so'ndiruvchi, borliqni yo'q etuvchi «olamtob» (olamni kuidiruvchi)dir. Shoir oftobga butunlay yangi ma'no beradi, g'urbat mazmunini anglashga hizmat ettiradi.

«Ko'rdim» radifli g'azalida dunyo kezman shoirning falsafiy o'ylari berilgan. U dunyo odamlari («ahli jahon»)da vafodan asar ko'rmaydi. O'z holidan birovga shikoyat qilishga hojat sezmaydi, chunki ularning ahvoli bunikidan «battar». Uningcha, umuman, birov bilan gaplashish imkoni yo'q. Chunki «Hamani ko'zini ko'ru qulog'i kar ko'rdum», - deb yozadi shoir. U Vatanga qayta olmasligini yurakdan sezadi. Shoirning «Murod nahlini togshimu besamar ko'rdim» (Murod darahkini topdimu mevasiz ko'rdum), «Firog' kechasini oh, besahar ko'rdum» deyishidan shu ma'no anglashilib turadi. Shoir Vatanidan kelgan har bir hat-habarni ko'ziga to'tiyo qiladi. Zavqiyning 1898 yili yozgan satrlaridagi ehtirosli so-g'inchdan hayajonga tushadi:

Jonimga tob soldi so'zi firoq, Furqat,

Kelkim, harob qildi bu ishtiyog, Furqat!

Qosid, etur payomim, har erda topsang oni,

Zavqiyini toqatini qo'p qilma toq, Furqat.

Shoir Furkat darhol:

Kezdim jahonni qolmay, Shomu Iroq,

Zavqiy! Bir topmadim seningdek ahli vifoq,

Zavqiy! Shavqi visoling ila hargiz qaror yo'qtur!

Jonimni yoqti hajru ko'nglum - firoq, Zavqiy! -

degan satrlar bilan boshlanuvchi she'riy javob bitib yuboradi. «Iqboli noraso»ligidan, «ma'yus tole'i»dan qadrdoniga shikoyat qiladi. Sharqu G'arb omuxta bo'lgan muazzam Bombay ko'chalarini kezar ekan, musofirligi har daqiqada esiga tushadi. Toshkentdagi ulfatlari bilan bo'lib turgan dushanba kun suhbatlarini, «g'ijjagu setorlar»ni, qadrdoni - san'atkor Farzinhonni yodga oladi. Kashmirdagi go'zal bilan uchrashuv va u bilan bo'lgan suhbat («Bir qamar siymoni ko'rdum baldai Kashmirda» g'azali) behtiyor Vatan mavzuiga kelib taqaladi.

«Qamar siymo» shoirdan «Tarki Vatan» sababini so'raydi. Shoir taqdirga yo'yadi. Hatto marg'ilonlik shoir va olim, donishmand qadrdoni Umidiy-Havoiy(1835-1905)ga yo'llangan she'riy maktubida o'z «Qori aka»sidan mo'tabar kitoblarga qarab, taqdirini ko'rib, yurtiga qaytish-qaytmasligini bilib berishni iltijo qiladi. Taqdir shoirni bo'ysunishga majbur etadi. 1903 yili Toshboltuga yozgan she'riy maktubida Yorkentda «muqim qolmoq»ni «Xudo taqdiri» deb bilgani, «chunucharo» (nega, nima uchun) debon sabab izlash bandalikka mos kelmasligini qayd etadi.

Shoir vatanjudoligi taqdir taqozosi ekanligiga shubha yo'q. Lekin buning ob'ektiv sabablari ham bor edi. Shoirning bir qancha asarlarida ham bunga ishoralar mavjud. Xususan, Zavqiyga yozgan mazkur she'riy maktubidagi quyidagi satrlar bu jihatdan e'tiborga molik:

Sargashta holatimdin voqiflik istar ersang,

Ibrat ko'zini ochib garduna boq, Zavqiy.

E'tibor bering: shoir sargashta holati sababini gardunda kechayotgan hodisalar zamiridan qidirishni tavsiya etmoqda. Uning boshqa asarlarida bu hodisalar mohiyati - yurtning istibdod iskanjasida qolganligi, «g'unchai davlat gul yanglig' parishon, hukumat gulshani hazon» bo'lganligi, bulbullar o'rnini zog'lar egallaganligi ochiq yozilgan. Demak, mazkur she'riy maktub yozilgan paytda bu haqda ochiqcha yozish imkoni bo'lmagan. Fikrni obrazlar vositasida, misralar tagmatnida berishdan o'zga chora qolmaganligi ma'lum bo'ladi. Shoir boshqa bir nazmiy maktubida shunday yozadi:

Borurman gar qutulsam bu tilismi hayratafzodin,

Etib imdod holimg'a jami'i muddaolardin.

Furqatning «Bu tilismi hayratafzodin qutulsam borurman» degan fikri chuqurroq o`ylab ko`rishni taqozo etadi. Demak, shoirning yurtga qaytish yo`llarida to`siqlar ko`p bo`lgan. U bularni ochiq aytmaydi. She`riy maktublarida o`z qadrdonlariga bu haqda ayrim ishoralar qiladi, holos.

Furqatning «Sayding qo`yaber, sayyod, sayyora ekan mazndek» satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o`rin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor. XVIII asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzog`iga tushgan ohuta hamdardlik tuyg`usi bilan to`lib-toshgan mahsus muhammas ham yozgan edi. Furqatning asari musaddas bo`lib, bu ham shu an`anada bitilgan. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo`lidan ketib, istilo asrining sayyodi qo`liga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma`no, yangi mazmun beradi. Qolaversa, furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she`rda nomi zikr etiladigan Sa`dulla Hofizning yomonlar tomonidan fojiali o`ldirilishini ham bir sabab qilib ko`rsatadilar.

Musaddas 7 banddan iborat. Dastlabki band shunday boshlanadi:

Sayding qo`ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,

Ol domini bo`ynidin, bechora ekan mandek,

O`z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,

Iqboli nigun, bahti ham qora ekan mandek,

Hijron o`qidin jismi ko`p yora ekan mandek,

Kuygan jigari-bag`ri sadpora ekan mandek.

Shoir tuzoqqa tushgan ohuning holini hilma-hil tashbih va muqoyasalar bilan tasvir etgach, ovchiga hitob qilib, uni banddan ozod etishini so`raydi. Yashamoq, dunyoga shunchaki bir kelib ketmoq emas, shilliqurt misoli faqat qorin g`amida g`ovakda g`imirlab o`tib ketish hdm emas. Yashamoq, birinchi navbatda, hur, erkin yashamoqdir. Bas, «rishtani (tuzoq iplarini) kes!..» hayqiradi shoir, tog`larga chiqib, yori bilan qovushsin. Kel, besh kunlik sening davringda bechora o`ynab-quvonsin. Tengdoshlari bilan dunyo ne`matlaridan bahramand bo`lsin. Umr bo`yi sening duoyi joningni qilsin. Ahir hijron o`qlaridan jismi butun jarohat ekan. Jigar-bag`ri ezilib, pora-pora bo`lgan ekan-ku! Har bir jonivor o`z jinsi bilan bo`lmog`i lozim. Har bir hayvonning o`z yaylog`i (yaylov joyi) va qishlog`i (qishloq joyi)ga teng keladigan saodati yo`q. Faqat uni ozod qilish va o`z holiga qo`yish kerak. She`rda ilgari surilgan g`oyalardan biri - shu, mazmuni — shu. Lekin bu fikrlar beihtiyor har bir millatning turmush va taraqqiyoti mutlaqo uning mustaqilligi va milliy zamin hamda o`z an`analari asosida bormog`i lozim degan va so`ngroq jadidchilikning bosh masalalaridan biriga aylangan g`oyani esga tushiradi. Bu hol Furqat ijodini yangi davr adabiyoti bilan bog`laydigan muhim nuqtalardandir. Tarji`band shaklida yozilgan musaddasning har bir bandi nihoyasida takrorlanib kelgan:

Hijron o`qidin jismi ko`p yora ekan mandek,

Kuygan jigari-bag`ri sadpora ekan mandek, —

misralari asardagi lirik ruhning yanada jo`shqin, ta`sirli bo`lishini ta`minlagan. Professor G`Karimov ta`biri bilan aytganda «...musaddas mazmun jihatidan nihoyatda kuchli va chu-qur bo`lib, kompoziniya jihatidan beqiyos tugallangan, badiiy forma va uslub jihatidan esa mislsiz yuksak asardir».

Tabiiyki, chor hukumati Furqatdek benazir iste`dodning, millatparvar shoirning, ortidan ko`plab kishilarni ergashti-ra oladigan salohiyatli tafakkur sohibining Turkistonda yashashidan manfaatdor emas edi. Shuning uchun ham uning yurtga qaytish yo`llari berkitib qo`yildi. Xalq shoiri Abdulla Oripovning «Furqat nidosi» she`rida shunday misralar bor:

Yurt u yonda, men bu yonda, o`rtada hijron seli —

Anga qo`prik tashlamakka baytlarim bo`ldi asos.

Darhaqiqat, shoirning muborak vujudi uzoqlarda qolib ketgan bo`lsa-da, uning o`lmas ruhi asarlari orqali avlodlar qalbida yashab kelmoqda.



1-rasm: XVIII asr Qo'qon

Furqat hayoti va ijodiga ssenariy dasturi

1-boshlovchi:

Furqat (taxallusi; asl ismsharifi Zokirjon Mullo Holmuhammad o'g'li) (1859, Qo'qon —1909, Yorkend) — taraqqiyparvar shoir, mutafakkir, publitsist. Mahallasidagi maktabda savod chiqargan, mudarris va kotiblardan xattotlik, arab tilini o'rgangan. Madrasada o'qigan (1873—76). Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyoti namoyandalari merosini chuqur o'rgangan, fors tilini mukammal o'zlashtirgan. 1876 yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahridagi savdogar togasining iltimosiga ko'ra u yerga borib, savdo ishlarida unga yordamlashgan, keyinchalik o'zi ham kichik do'kon ochgan. Ayni paytda bilimdon ziyoli sifatida kishilarning arz va iltimoslarini rasmiy mahkamalarga arizalar shaklida bitib, mirzalik ham qilgan.

*Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa,
Qilurga sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan bo'lsa.*

*Xazon ayyomida ul tavba qilgan bo'lsa ham maydin,
Yetib mayxoralikning mavsumi, paymonshikan bo'lsa.*

2-boshlovchi:

*Bulut qatra fishonu, ruhafzo sabzalar xandon,
Arig'larning labida sabzakori bir chaman bo'lsa.*

*Havo ham mo' tadil, havzi musaffo, suffai dilkash,
Oqar suv g'alt urib, sebarga uzra mavjan bo'lsa.*

1-boshlovchi:

*Sabui la'l birlan shishai bayzou oltun jom
O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa.*

*Gul uzra andalibu, sarvning boshida qumrilar
Yuzu qad hasratidin ohu faryod aylagan bo'lsa.*

2-boshlovchi:

*Gul uzra andalibu, sarvning boshida qumrilar
Yuzu qad hasratidin ohu faryod aylagan bo'lsa.*

*Kishi to 'biyu kavsar, jannatu rizvonni ne qilsun?
Jahon ayvonida hosil bu yanglig' anjuman bo 'lsa.*

*Sururu shodlikni dahr bog'ida nechuk ko 'rgay?
Kamina Furqatiyning maskani baytul-hazan bo 'lsa.*

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, aziz o'quvchilar. Furqat (taxallusi; asl ismsharifi Zokirjon Mullo Holmuhammad o'g'lining yorqin hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Shoirning musaffo hayot yo'li" mavzusidagii kechamizga xush kelibsiz, azizlar.

2-boshlovchi:

Furqat hayoti vatanjudolikda kechdi. Uning chet elga ketish va qolib ketishi shoir ihtiyori bilan sodir bo'lmagan. Adabiyotshunos olim Sh. Yusupov "Furqat yo'llarida" monografiyasida Furqat yirik shahs ekanligi, uni yurtda yashab, ijod qilishligi rus davlatining "qudratini" uzoq saqlanishligiga g'ov bo'lishi mumkin degan hadikda qolgan N.P. Ostroumovning taz'iyi va ta'qibiga ko'ra Vatandan chiqib ketishga majbur bo'lganligini arhiv hujjatlari hamda ishonchli manbalar asosida e'tiborli, ilmiy mulohazasini bayon qilgan.

1-boshlovchi:

Shoir chet ellarda kezar ekan, bir lahza ham Vatanidan ko'ngil uza olmaydi. Yurtidan ayri tushganini dildilidan sezib turadi. Iztirob chekadi. Uning xorijda yozgan «Adashganman» radifli g'azali va muhammasi buning yorqin misoli. She'rga «adashganman» so'zining radif qilinib, urg'u berilishining o'zida katta ma'no bor. Qayerga bormasin, shoir o'zini g'arib, oshiyonidan ayrilgan qush, bo'stonidan adashgan bulbul singari his qiladi:

G'aribi bu viloyat - honumonidin adashganman,

Basoni murg'i vahshiy - oshiyonidin adashganman.

2-boshlovchi:

Uning xalqona ohanglardagi misralari o'zbekning chin ma'nodagi ma'naviy mulkiga aylandi.

1-boshlovchi:

Agar Furqat she'rlarini jamlab, bir nom bilan umumlashtirsa, uni "O'zbek xalqiga qasida" deb atash mumkin bo'lar edi. Chunki har bir she'r misrasi ortida O'zbek, uning dardi, quvonchi, tashvishi, mehri, orzu-umidlari, qo'ying-chi, butun hayoti gavdalanadi.

2-boshlovchi:

Furqatning «Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mazndek» satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o'rin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzog) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor. XVIII asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzog'iga tushgan ohuta hamdardlik tuyg'usi bilan to'lib-toshgan mahsus muhammas ham yozgan edi. Furqatning asari musaddas bo'lib, bu ham shu an'anada bitilgan. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo'lidan ketib, istilo asrining sayyodi qo'liga tushishi unga, tabiiyki, yangi

ma'no, yangi mazmun beradi. Qolaversa, furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she'rda nomi zikr etiladigan Sa'dulla Hofizning yomonlar tomonidan fojiali o'ldirilishini ham bir sabab qilib ko'rsatadilar.

Musaddas 7 banddan iborat. Dastlabki band shunday boshlanadi:

Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,

Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mandek,

O'z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,

Iqboli nigun, bahti ham qora ekan mandek,

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.

1-boshlovchi:

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek, —

misralari asardagi lirik ruhning yanada jo'shqin, ta'sirli bo'lishini ta'minlagan. Professor G`Karimov ta'biri bilan aytganda «...musaddas mazmun jihatidan nihoyatda kuchli va chu-qur bo'lib, kompoziniya jihatidan beqiyos tugallangan, badiiy forma va uslub jihatidan esa mislsiz yuksak asardir».

Qo'shiq.

2-boshlovchi:

Shoir O'zbekiston atalmish yurt farzandi ekanligidan cheksiz g'ururlanardi. U millatning chinakka m fidoyi farzandi edi

2-boshlovchi:

Aziz vatanimiz va

xalqimizning armonli ohiga aylangan Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zotlarning qismati, Amir Temur, Alisher

Navoiy kabi siymolar taqdiri shoir qalamidan she'r bo'lib emas, hasrat bo'lib to'kiladi.

1-boshlovchi:

O'zbekning ardoqli shoiri Furqat

ko'plab jadid adabiyotining namoyondalariga bag'ishlab madhiyalar yozgan. Ular tilidan so'zlaydi, orzu-istaklarini namoyon qiladi.

2-boshlovchi:

Oshiqi dildodadurman dilbarimni kavlama,

Axgar o'ldi g'am o'tida paykarimni kavlama,

Sayr qildim bahru bar xushku tarimni kavlama,

*Ey sabo, g'amzodadurman, bistarimni kavlama,
Chun shafaq oludaman xokistorimni kavlama!*

*Charxi kajraftordin behad alomatlar kelur,
Bu sabab ko'zdin yuza ashki nadomatlar kelur,
Gar yurakni qo'zg'asam shirin hikoyatlar kelur,
Har zamone Laylidin menga kitobatlar kelur,
Sanki Majnun bo'lmasang sardaftarimni kavlama!*

1-boshlovchi:

*G'amdin ozoda bilur ozodalarni holini,
Yo'qsa miskin na bilur shahzodalarni holini
Xurdadonlar bilmadilar soddalarni holini,
Xonavayronlar bilur aftodalarni holini.
Eyki mahram bo'lmasang chashmi tarimni kavlama!*

*Ishq savdosi tushub boshimg'a, ahvolim xarob,
Jonim aylar tan aro siymob yanglig' iztirob,
Ta'na qilma, zohido, ko'nglumda g'amlar behisob,
To kishig'a dard tegmay bo'lmasi bagri kabob,
Dilda darding bo'lmasa dardi sarimni kavlama!*

Necha kunlar hamdam o'zga vahshiyu tayr ayladim,

2-boshlovchi:

*Bilmadim bu yo'lda shar' qildim vayo xayr ayladim
G'am hujum etti aning-chun maskanim dayr ayladim,
Lomakonni shahrini bir hu bila sayr ayladim,
Jabraili ishqman, bolu parimni kavlama!*

*Gah o'zimni suvg'a urdum, goh o'tga dam-badam,
Bo'lmasi davron safosi lahzae boshimg'a kam,
To shariatni tutub qo'ydim tariqatga qadam,
Bahri rahmatga kprib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsen, gavharimni kavlama!*

1-boshlovchi:

*Chun qadam qo'ydung bu yo'lg'a bo'lmasi bematlab vale,
Faxri zillat bo'l, talashma g'urbati mansab vale,
Furqatiy, sargashta bo'lsang, yig'lagil har shab vale,
Durri daryoyi maoniy bo'ldu chun Mashrab vale,
Diya bino bo'lmasang ko'b javharimni kavlama!*

Qo'shiq: "Unutmoq osonmas ularni"

1-boshlovchi:

*Furqat she'rlari orqali nafaqat o'zini, balki qancha – qancha hofizlarni, xonandalarni elga tanitdi.
Shoirning har bir so'zi she'r edi. U inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yoza olardi. Shoirning
yuragi xalq yuragi bilan hanohang urardi.*

2-boshlovchi:

U kishi barcha mavzularda: muhabbat, Vatan, ona, shaharlar madhiyasi, tarixiy shaxslar, tabiatga bag'ishlab ijod qilardi.

Sahnaga o'quvchilar kirib keladilar.

1-o'quvchi:

*Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa,
Qilurga sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan bo'lsa.*

*Xazon ayyomida ul tavba qilgan bo'lsa ham maydin,
Yetib mayxoralikning mavsumi, paymonshikan bo'lsa.*

2-o'quvchi:

*Bulut qatra fishonu, ruhafzo sabzalar xandon,
Arig'larning labida sabzakori bir chaman bo'lsa.*

*Havo ham mo'tadil, havzi musaffo, suffai dilkash,
Oqar suv g'alt urib, sebarga uzra mavjan bo'lsa.*

1-o'quvchi:

*Sabui la'l birlan shishai bayzou oltun jom
O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa.*

*Gul uzra andalibu, sarvning boshida qumrilar
Yuzu qad hasratidin ohu faryod aylagan bo'lsa.*

2-o'quvchi:

*Kishi to'biyu kavsar, jannatu rizvonni ne qilsun?
Jahon ayvonida hosil bu yanglig' anjuman bo'lsa.*

*Sururu shodlikni dahr bog'ida nechuk ko'rgay?
Kamina Furqatiyning maskani baytul-hazan bo'lsa.*

Qo'shiq yahgraydi

1-boshlovchi:

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat G'azallari - Mumtoz she'riyatda g'azal shoirning salohiyati ko'lamini anglatuvchi asosiy janr hisoblangan. Har bir ijodkorning maqomi uning g'azalchilikdagi mahorat darajasi bilan belgilangan. Shuningdek, devon tuzishda ham g'azal alohida mavqe kasb etgan Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar, Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar. Subhidam tushub shabnam bo'ldi sabzalar xurram, Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar. Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni, Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar. Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,

*Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.
Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.
Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.
Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar,
Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.*

2-boshlovchi:

Furqatning ushbu g'azali-tabiat lirikasining namunasi. Unda ko'klam kelishi bilan tabiatda ro'y berayotgan go'zal o'zgarishlarni g'oyat sinchiklab kuzatgan shoirning qalb kechinmalari aks etgan. Shoir o'tkinchi umrni go'zallik qo'ynida ezgulik bilan o'tkazishni istaydi. Chunki bahorgina emas, umr ham o'tkinchi- "g'animat".

1-boshlovchi:

O'zbek adabiyotida ma'rifatparvarlik yo'nalishiga asos solgan va bu yo'nalishning eng jo'shqin kuychisi Furqatdir. Murakkab va o'ta ziddiyatli davrda yashab, ijod etgan shoir Furqat o'z ilmini va butun qobiliyatini xalq xizmatiga bag'ishlab erkinlik, ozodlik va baht kuyini kuylagan ma'rifatparvar shoirdir.

2-boshlovchi:

Furqat murakkab va ziddiyatli davrda yashab ijod qildi. O'z asarlari orqali ilmning, ma'rifatning beqiyos ahamiyatini alohida ta'kidladi, ilmu ma'rifatga millatni muqarrar tanazzuldan qutqaruvchi yagona vosita deb qaradi.

1-boshlovchi;

Furqat murakkab va ziddiyatli davrda yashab ijod qildi. O'z asarlari orqali ilmning, ma'rifatning beqiyos ahamiyatini alohida ta'kidladi, ilmu ma'rifatga millatni muqarrar tanazzuldan qutqaruvchi yagona vosita deb qaradi.

2-boshlovchi;

Furqat - o'zbek xalqining zabardast shoiri, publist, g'azalnavs shoir, elshunos olim, mutarjim. Bir qancha asarlari she'rlari va publistika yo'nalishidagi ilmiy asarlari bilan xalqimiz qalbidan, o'z zamonasining buyuklari qatoridan joy olgan shoirdir.

1-boshlovchi:

Mana azizlar Furqat hayoti va ijodiga birgalikda nazar tashladik, uning mashaqqatli va mazmunli ijodini o'rgandik, ozgina bo'lsa ham dillaro'zga hushnudlik kiritgan bo'lsak biz bundan juda xursandmiz.

2-boshlovchi;

Shuning bilan tadbirimiz o'z nihoyasiga etdi, hayr calomat bo'ling.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haqida hujjatli film namoyishi bo'lib o'tdi

Adiblar xiyobonida joriy yilning 6-sentabridan buyon har kuni "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida "XALQ YURAGI" abadiyatga aylangan adabiyot turkum hujjatli filmlar

premyerasi

o'tkazilmoqda.

Kuni kecha Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning hayot ijodiga bag'ishlangan "G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda..." film namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishda O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi bosh direktorining birinchi o'rinbosari Shuxrat Rizayev Tursunovich, Furqatshunos olim filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabbor, Toshkent arxitektura-qurilish instituti professor-o'qituvchi va talabalari ishtirok etdi hamda film ijodkorlari bilan jonli muloqot tashkil etildi.

Furqat yaqin tarixda yashab o'tgan bo'lsada, u bilan bog'liq ma'lumotlarning ko'pi ochiqdanmagan, – deydi senariy muallifi Baxtiyor Yoqubov. – Ko'p ma'lumotlar faqat hujjatlarda qolib ketgan. Ayrim ma'lumotlar qayta tekshirishni talab qiladi. Senariyni yozishda biroz qiyinchiliklarga duch keldik. Ammo adabiyotshunoslar, tarixchilar fikrlari va maqolalariga tayanib, kartina uchun kerakli ma'lumotlarni jamladik. O'ylaymanki, Furqat shaxsini to'laqonli ochib bera oldik. Filmda Shafolat Rahmatullayeva, Rasulxon Qodirxonov, Muhammadsoli Yusupov, Gleb Gollender, Mirkamol Qoraboyev, Yulduz Payziyeva, Bobur Aytmagambetov kabi aktyorlar rollar ijro etgan.

Film nayoshidan oldin Toshkent arxitektura-qurilish instituti "Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat-ma'rifat" bo'limi tomonidan O'zbekiston milliy bog'i Adiblar xiyoboni majmuasida "G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda..." hujjatli film namoyishiga bag'ishlab ma'rifiy tadbir tashkil etdildi. Tadbirni Toshkent arxitektura-qurilish institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektor Abdullo Mirisayev O'lmasovich ochib berdi hamda Toshkent arxitektura-qurilish instituti talabalari ijrosida Furqat ijodidan chiqishlar namoyish etildi. Shu bilan bir qatorda TAQI talabalari tomonidan chizilgan Furqat siymosi aks etgan foto ko'rmazasi namoyishga kelgan tomoshabinlarni o'ziga jalb etdi.

Namoyish avvalida Toshkent arxitektura-qurilish instituti jamoasi va talabalar tomonidan Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haykali poyiga guldasta qo'yildi va xotirasiga hurmat bajo keltirildi. Talabalar uchun ta'sis etilgan Furqat nomidagi maxsus stipendiya tanlovining quyidagi g'oliblari taqdirlandi. Qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalari texnologiyasi mutaxassisligi QMB-20 guruh magistranti Barno Qushbaqova, Interer va Landshaft dizayn ta'lim yo'nalishi 6-18 guruh talabasi O'g'iloy Avazbekova, Arxitektura ta'lim yo'nalishi 5-18 guruh talabasi Muazzam Nizomova, Menejment ta'lim yo'nalishi 33-18 guruh talabasi Ozoda Avg'onova. Ma'lumot o'rnida adib 1859-yilda Qo'qonda tavallud topgan va 1909-yilda vafot etgan. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinossenariy va boshqalar yaratildi. Umri davomida doimo vatanga qaytish umidi bilan yashadiki, bu intilish uning qator badiiy asarlarida, xat-xabarlarida ko'rinib turar edi. Ziyorat va sayohat munosabati bilan uning "Hajnoma", "Adashganman", "Kashmir", "Bulbul" kabi asarlari maydonga keladi. Shoiridan ma'rifatni, hayotni sevishni, uni qadrlashni targ'ib etuvchi g'azallar, muxammas va musaddaslar, masnaviy va maktublar..... meros bo'lib qoldi.



2-rasm: Furqat hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahna asari

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Furqat ijodini o'rganar ekanmiz, undagi janrlar xilma xilligi va rang-barangligini kuzatishimiz mumkin. Furqat, avvalambor, lirik shoirdir. Uning ijodida g'azal, muxammas,

musaddas, manzuma, masnaviy kabi janrlar yetakchi o'rin egallaydi. Shuningdek, uning asarlari orasida muxammaslar alohida o'rin tutadi. Shoir ijodini o'rganish davomida u yaratgan lirik qahramonning eng muhim xususiyati- hayotni sevishi ekanini kuzatishimiz mumkin. U hayotga doim yaxshi tomondan qarashga, uning go'zalliklaridan bahra olishga intiladi. Yor-mashuqa, va uning husn-u latofati, noz-u karashmalari haqidagi qo'shiq shu hayot go'zalliklarining timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir tarjimaiy holini o'rganar ekanmiz, u umrining ko'p qismini Vatandan olisda, yurt sog'inchi va diydor ilinji ila o'tkazganiga guvoh bo'lamiz. Taqdir taqozosi va davr o'yinlari bois shoir yurtidan olislarda yashashga majbur bo'ladi. Bu holdan chuqur qayg'uga tushgan shoir o'zini gulzoridan ayrilgan bulbul, oshyonidan judo bo'lgan „murg'i vahshiy“ deya tasvirlaydi: “Kishi holimni bilmas mehribonimdin adashganman, Vatan ovoradurmen bo'stonidin adashganman, Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman, G'aribi kuyi g'urbat xonumonidin adashganman, Va yo bir murg'i vahshiy oshyonidin adashganman”. Ha, afsuski, bu hayot faqat shodlik va go'zallikdan iborat emas edi. Zero, dunyo yaralibdiki, bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat hamisha yonma- yon yuradi. Olamga katta umid va ishonch bilan boqqan shoir ham qayta va qayta nohaqlik qurboniga aylanadi. Ko'p mashaqqatlar chekadi. Shoirning bu paytdagi ruhiy holati esa, tabiiyki, misralarida namoyon bo'lmay qolmaydi, albatta. Davr taqozosi bilan Furqat adabiyotimizga yangi zamon jarchisi bo'ldi. Ammo shugina emas, u mumtoz adabiyotimiz an'analari munosib davom ettirgan shoir bo'lib tarix zarvaraqlariga kirdi. Furqat - o'zbek xalqining zabardast shoiri, publist, g'azalnavs shoir, elshunos olim, mutarjim. Bir qancha asarlari she'rlari va publistika yo'nalishidagi ilmiy asarlari bilan xalqimiz qalbidan, o'z zamonasining buyuklari qatoridan joy olgan shoirdir.

Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat. T., 1977.

Rasul Xolid, Furqat. Tanqidiy biografik ocherk. T., 1959.

Yusupov Sh. Furqat yo'llarida. T.: Adabiyot va san'at, 1984.

Yusupov Sh. O'zbek ma'rifatarvarlik adabiyoti va Furqat. T., 1992.

Yusupov Sh. Xudoyorxon va Furqat. T.: Sharq, 1997.

N.Jabborov. „Jahon basti kushodi ilm birla...“, (Furqat hayoti va ijodining xorijda o'rganilishi) Jahon adabiyoti, 2001, 8-son, 122–129-betlar.

N.Jabborov. Furqat nega Furqat? Yoshlik, 2001, 5-6 son. 39–41-betlar.

N.Jabborov, Furqat merosi va Xitoy manbalari, Sharq yulduzi. 2001, Ikkinchi fasl, 121–127-betlar.

N.Jabborov, Furqat she'riyatida Qur'oni karim oyatlarining talqini. Imom al-Buxoriy saboqlari, 2000, 2-son, 138–139 betl

N. Jabborov, Furqat „Tanlanma asarlar“ning Shinjong nashri xususida. O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 5son, 61–64-betlar.

N. Jabborov, Vatan ishtiyoqin tortaram. Tafakkur, 2002, 1-son, 48–57-betlar.

N. Jabborov, Tiramohda bahor orzusi. Yoshlik, 2002, 3-son.

N. Jabborov, Furqat istilochini maqtaganmidi? O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002-yil 22-fevral.

Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1959.

.Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1980.

.Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik (arab imlosida). Toshkent, 1990.

Sayohati Furqat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1990-yil 14-dekabr.

Furqat. Qavoidi Chin va umuroti siyosiy. Sharq yulduzi, 2001, Ikkinchi fasl.

Tanlangan asarlar, 2 j.li, T., 1959; Asarlar majmuasi [2 j.li], T., 1991.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Hammualliflar: Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek

Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov. –T.: “Ma’naviyat”. 2004. –105-145-betlar.

Bibliografiya xizmati